



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VA UY-JOY  
KOMMUNAL XO'JALIGI VAZIRLIGI  
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»  
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Тошкент вилояти

Toshkent viloyati Toshkent sh., 100011, Abay ko'ch., 6-uy Tel: +998 71 244-43-56, Faks: +998 71  
244-26-05, e-mail: vilekspertiza@mail.ru [www.mc.uz](http://www.mc.uz)

Holati: Ijobiy

Direktor: RADJABOV JAMSHID SHUXRATOVICH

Sana: 29-01-2024 yil



**Yig'ma ekspert xulosasi № 136254**

**Obyekt nomi** «Toshkent viloyati Bekobod tumani Oltin vodi y MFYdagi OShPni rekonstruksiya qilish»

**Buyurtmachi** - Toshkent viloyati hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati"  
injiniring kompaniyasi.

**Bosh loyihachi** - «MARG'ILON INTEGRAL LOYIHA» MChJ.

**Litsenziya** AL-001710, 24.03.2021 yil.

**Moliyalashtirish manbai** - Byudjet mablag'lari hisobidan

**Bosh pudratchi** - Tender asosida aniqlanadi.

**Qurilish turi** Rekonstruksiya

**Murojaat raqami:** № 126626

**1. Loyihalash uchun asos**

1.1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.09.2023-yildagi rayosati majlisining 83/51-sonli bayoni.

1.2. Toshkent viloyati Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan 10.06.2023-yilda berilgan 1727-1727220-94431-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig'i.

1.3. Toshkent viloyati hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi tomonidan 2023-yilda tasdiqlangan, Toshkent viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi va loyihachi "MARG'ILON INTEGRAL LOYIHA" MChJ bilan kelishilgan Loyihalash topshirig'i.

1.4. "FAZOVIY KONSTRUKTSIYALAR, BINOLAR VA INSHOOTLARNING SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI ILMIY-ISHLAB CHIQARISH LABORATORIYASI" tomonidan 2023-yilda berilgan mavjud binoning holati haqida Texnik xulosa.

1.5. Obyekt bo'yicha buyurtmachi "Toshkent viloyati hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi" tomonidan 2023-yilda tasdiqlangan Nuqsonli dalolatnoma.

**2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar**

2.1. Loyihani ishlab chiqish bosqichidagi "Harajatlarni boshlag'ich joriy narxlari hisobi topshirig'i" tarkibi:

- Tushuntirish xati;

- Bo'limlarning ishchi chizma albomlari;

- Smeta hujjatlari.

2.2. Taqdim etilgan smeta xujjatlari qiymati joriy narxlarda QQS bilan va buyurtmachining boshqa xarajatsiz 1 516 594, 239 ming so'm;

- Lokal manbalar va zaruriy manbalar ro'yxati.

2.3. "MARG'ILON INTEGRAL LOYIHA" MChJ tomonidan 2023-yilda ishlab chiqilgan binoni issiqlik konstruksiyani texnik xisoboti.

2.4. "MARG'ILON INTEGRAL LOYIHA" MChJ tomonidan 2023 yilda ishlab chiqilgan binoni energiya samaradorligi pasporti.

### 3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

#### 3.1. Qurilish maydonining shartlari.

Me'yoriy shamol tezligi bosimi - 0,38 kPa (38 kgk/m<sup>2</sup>);  
Me'yoriy qor yuki - 0,50 kPa (50 kgk/m<sup>2</sup>);  
Qurilish maydonchasining seysmikligi - 7 ball;  
Tuproqning seysmik xususiyatlariga ko'ra toifasi - I toifa.  
Tuproqning cho'kuvchanligiga ko'ra toifasi - cho'kmaydigan;  
Tuproq muzlash qatlamining normativ chuqurligi - 0,70 metr;  
Seysmik xususiyatlariga ko'ra kategoriyasi- III (*uchinchi*)

#### 3.2. Bosh reja yechimi:

Bosh reja bo'yicha "Toshkent viloyati Bekobod tumani Oltin vodiya MFYdagi OShPni rekonstruksiya qilish" yangidan qurish ikki o'rinli hojatxona, 10 m<sup>3</sup> qazilma chuqur, rejada ko'rsatilgan.

#### *Texnik va iqtisodiy ko'rsatkichlar:*

Qurilish maydoni - 320,0 m<sup>2</sup>.

Umumiy maydoni - 332,0 m<sup>2</sup>.

Qurilish hajmi - 1280,0 m<sup>3</sup>.

#### 3.3. Arxitektura va konstruktiv yechimlari.

Oilaviy shifokorlik punkti binosi mavjud to'rtburchak shaklda, bir qavatli bino bo'lib, o'qlarda o'lchamlari 15,60x21,0 metr, qavat balandligi - 3,00 metr. Binoning umumiy balandligi - 7,120 metr.

Strukturaviy sxema - g'ishtdan yasalgan devorlar.

Poydevorlar - tasmasimon monolit temir-beton;

Devorlari - 380 mm qalinlikdagi pishgan g'isht;

Orayopmalar va tom yopmalar - 220 mm qalinlikdagi dumaloq teshikli tayyor temir-beton plitalar, yoyog'och konstruksiya ustidan profnastil;

#### *Ichki pardoqlash ishlari:*

Devorlar va bo'linmalar (pardevor)- yaxshilangan suvoq, yorqin rangli suv emulsiyasi bilan bo'yalgan.

Shift - tekislangan, suyuq suvoq qilingan va suv emulsiyasi bilan bo'yalgan.

Pollar - keromgranit plitalardan va laminat.

#### *Tashqi pardoqlash ishlari:*

Devorlar - fasad yaxshilangan shuvoq, suyuq travertindan devorga ishlatilgan.

Sokol - keromgranit plitalar.

Eshiklar- metall, MDF, alyumin profillar.

Romlar - plastik va alyumin profillar.

#### *Binoning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.*

Umumiy maydon - 780.4 m<sup>2</sup>

Qurilish maydoni - 465.6 m<sup>2</sup>

Qurilish hajmi: - 3492.0 m<sup>3</sup>

10 m<sup>3</sup> rezervuar - o'lchamlari 3,10x3,10 metr, chuqurligi 2,58 metr, monolit temir-beton devorlarining qalinligi va pastki qismi 300 mm, monolit temir-beton bo'lgan to'rtburchak rezervuar. Poydevor osti asosi 100 mm betondan. Rezervuarining yon sirtlari, ichki yuzaning qoplamasi 300 mm qalinlikdagi temir-beton monolit devor, beton sinfi M-200, bitum bilan izolyatsiya qilish ko'zda tutilgan.

Ikki o'rinli hojatxona - to'rtburchak shaklda bo'lib, o'qlarda o'lchamlari 3,00x3,00 metr, balandligi - 2,40 metr. Strukturaviy sxema - pishgan g'ishtdan yasalgan devorlar. Poydevorlar B-7,5 toifali betondan yasalgan monolit tasmasimon poydevorlar bo'lib, chuqurligi 2,30 metr.

#### 3.4. Yong'in xavfsizligi.

Koridorlar orqali evakuatsiya qilish. Yo'nalish bo'yicha qochish yo'llarida eshiklarni ochish binodan chiqish. Qochish yo'llarida ichki bezatish va tashqi bezatish dan yonmaydigan materiallar. Yog'och

uyingizda tuzilmalari yong'indan himoyalangan. Odamlarni ogohlantirish uchun avtomatik yong'in signalizatsiya tizimi mavjud yong'in, favqulodda yoritish, "Chiqish" yozuvi bilan yoritilgan belgilar va yong'in qarshi rezervuar.

#### **4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:**

OShP binosi barcha muhandislik tizimlari bilan ta'minlangan: suv ta'minoti va oqava suv tarmog'i, isitish, shamollatish va sovutish, elektr yoritish va elektr ta'minoti, aloqa tarmoqlari va boshqa tarmoq va tizimlar texnik shartlarga muvofiq muhandislik tizimlari va tarmoqlariga ulanadi. Barcha ichki va tashqi muhandislik ta'minotiga tarmoqlariga ulanish ishlari Arxitektura - rejalashtirish topshirig'ida ko'rsatilgan manfaatdor tashkilotlarning texnik shartlari hamda loyiha yechimiga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

#### **5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.**

Loyiha kelishilgan:

- Toshkent viloyati Davlat dasturlari ijro etilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo'yicha viloyat ishchi guruh shtabi tomoni bilan kelishilgan shtab dalolatnomasi.
- O'zbekiston Respublikasi qurilish vazirligi Toshkent viloyati Qurilish bosh boshqarmasi loyiha smeta hujjatlarni kelishish bo'yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organing 12.07.2023-yildagi 105043520-sonli xulosasi.
- Davlat ekologik ekspertiza markazi Toshkent viloyati filialining 19.01.2024-yildagi 05/2-163-sonli ekologik ekspertiza xulosasi.

#### **6. Ekspertiza natijalari.**

6.1. Ishchi loyiha buyurtmachi tomonidan ekspertizaga texnologik va boshqa yechimlarga nisbatan sharhlar va takliflarsiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida soxalar ekspertlari xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihaga tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi.

6.3. Ekspertiza natijalariga ko'ra obektning taxminiy va tavsiyaviy qiymati qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) bilan va buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz 1 516 594,239 ming so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati 73 924,747 ming so'm iqtisod qilinish, 1 442 669,492 ming so'm qilib belgilandi, shu jumaladan:

- qurilish-montaj ishlari - 1 179 725,809 ming so'm;
- uskunalar va jihozlar - 108 371,951 ming so'm;
- qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) - 154 571,731 ming so'm.

Qiymat kamaytirilishi, elementlar resurs me'yorlari standartlarini, mashina va mexanizmlarni ishlatish xarajatlarini, asosiy qurilish materiallari narxilarini, qurilish ishchilarining mehnat xarajatlarini va boshqalarni aniqlashtirish orqali erishildi.

6.4. Buyurtmachi asbob-uskunalar sotib olayotganda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi 332-son qarori va O'zbekiston Respublikasi 2021-yil 22-apreldagi 684-son "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunga amal qilishi kerak.

6.5. Demontaj ishlari davomida materiallarni qaytarish narxi buyurtmachi va pudratchi bilan birgalikda aniqlanishi kerak.

6.6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi "Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati faoliyatini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 321-sonli qaroriga 1-ilova "Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati to'g'risida" Nizomning 2-bob 6-bandi, 3-bob 7-bandi, 5-bob 9-bandi hamda 11-bandiga muvofiq buyurtmachi xizmati unga yuklangan vazifa va funksiyalar samarali bajarilishi uchun javobgardir.

6.7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi "Shaharsozlik hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish tartibotlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 579-sonli qaroriga 1-ilova "Obektlarni qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal va joriy ta'mirlash bo'yicha shaharsozlik va

loyiha hujjatlarining loyihaviy yechimlarini shaharsozlik hujjatlariga muvofiqligi yuzasidan ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risida" Nizom 4-bobi 29-bandiga binoan, ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi xamda loyiha tashkiloti javobgardir.

6.8. Buyurtmachi loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.9. Loyihachi tashkilot Buyurtmachiga o'rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan taklif va e'tirozlar yuzasidan qabul qilingan ko'rsatmalar asosida (loyihachi tashkilot tomonidan) loyiha-smeta hujjatlariga tegishli o'zgartirishlarni kiritgan xolda taqdim etishi kerak. Loyihachi tashkilot tomonidan berilgan javoblar uchun mas'ul va javobgardirlar.

6.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi PQ-332-sonli qaroriga asosan loyiha-smeta hujjatlarinig chegaraviy qiymati "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" DUK xulosasi asosida aniqlanadi.

6.11. Ekspertiza natijalari asosida tavsiya etilgan qiymat shartnoma tuzish uchun asos bo'la olmaydi.

6.12. Buyurtmachiga quyidagilar tavsiya etiladi:

- qurilish materiallari (mahsulotlar, tuzilmalar) va jihozlarning narxi mintaqaviy bozorda, shuningdek to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqaruvchilar (etkazib beruvchilar) tomonidan, hamda, birja byulletenlari va qurilish materiallari yarmarkalari, yetkazib beruvchilarning ulgurji narxlari asosida, kataloglardan va boshqa manbalardan aniqlanishi kerak;

- Loyihachi tomonidan ishlab chiqilgan muhandislik ta'minoti loyihalari barcha manfaatdor tashkilotlar bilan kelishilsin.

- Buyurtmachi tomonidan "O'ZTIBLOYIHA" MChJ bilan kelishilganligi yuzasidan xulosa olish hamda mazkur xulosaga asosan loyihaga tegishli o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda qayta ekspertiza ko'rigiga taqdim etishi lozim.

## **7. Xulosalar.**

7.1. Ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda "**Toshkent viloyati Bekobod tumani Oltin vodiy MFYdagi OShPni rekonstruksiya qilish**" obektining ishchi loyihasi kelgusida ko'rib chiqish va kelishishga tavsiya etiladi.

**Bosh mutaxassis:** Suleymanova Umida Ravilevna

### **Ishtirokchi ekspertlar:**

SHAKUROV RAFAEL FAXRAZEYEVICH

KARABAEVA DILFUZA XUDAYBERGENOVNA

Usmanov Aybek Daniyarovich

Olxovskaya Viktoriya Kamilovna

Atabayev Daniyar Baxtiyarovich

ADJIGAFAROVA REMZIYE ABLAYEVNA

GULYAMOV NADJIMITDIN SHARAFUTDINOVICH

TULYAGANOV YEVGENIY KAPIR-DJANOVICH

posle\_zamechanie\_oshp\_v\_msg\_oltinvodiy [Faylni ko'rish](#)

